



Xizmat ko'rsatish sohasi: O'zbekistondagi holati, rivojlanish omillari va to'siqlar

Ilmiy rahbar PhD Dotsent:

Xusanova Gulchexra Sayfullayeva

Xalqaro Nordic Universiteti

gulchexra2000@mail.ru

Telefon:94-421-07-77

Normatov Asliddin Shavkatovich.

Xalqaro Nordic universiteti

karimov16186@gmail.com

telefon: 97-072-31-41

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish sur'atlari, uning iqtisodiyotdagi o'rni, asosiy rivojlanish omillari hamda sohani to'siqlab kelayotgan muammolar tahlil qilingan. Soha tarmoqlari bo'yicha statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil o'tkazilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy rivojlanish, raqobat, tadbirkorlik, infratuzilma, O'zbekiston.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu soha nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM)da o'z ulushi bilan, balki bandlik darajasini oshirish, ichki bozorni rivojlantirish va aholi farovonligini ta'minlashdagi roli bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqola xizmatlar sohasining joriy holati, uni rivojlantiruvchi omillar hamda mavjud to'siqlarni o'rganishga qaratilgan. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi har qanday mamlakat taraqqiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida qaraladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyati ko'p jihatdan aynan xizmatlar sektorining ulushi yuqoriligi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, AQSh, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarda xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 60–70 foizdan ortiqni tashkil etadi. Bu esa mazkur



sohaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2017-yildan boshlab Prezident tashabbusi bilan olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida nafaqat yirik shaharlar, balki viloyat va qishloq joylarda ham bandlik darajasini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish, aholining daromadlarini ko'paytirish va ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Xizmatlar sektori tarkibiga kiruvchi savdo, transport, turizm, aloqa, moliya, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa yo'nalishlar asta-sekin diversifikatsiyalashmoqda.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasi hali to'liq rivojlangan, deya bo'lmaydi. Mavjud infratuzilmaning yetarli emasligi, malakali kadrlar tanqisligi, normativ-huquqiy baza bilan bog'liq muammolar, ayrim hududlarda xizmatlar sifati va sonining past darajada ekani sohaning salohiyatidan to'laqonli foydalanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining bugungi holati chuqur tahlil qilinadi, uni rivojlantiruvchi omillar yoritiladi hamda tizimli to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, xizmatlar sektorini kuchaytirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va ichki bozorni mustahkamlash mumkin bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasi har qanday iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, bandlik darajasini oshirish va aholining farovonligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot tarkibida katta ulushni egallaydi va iqtisodiyotning drayveri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda ham ushbu sohani rivojlantirishga oxirgi yillarda katta e'tibor qaratilmoqda. Islohotlar, texnologik yuksalishlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralarning kuchaytirilishi xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi, jumladan savdo va umumiy ovqatlanish, transport va logistika, turizm, axborot-kommunikatsiya, moliya va bank ishi, ta'lim va sog'liqni saqlash, maishiy xizmatlar kabi tarmoqlar bu sohaga kiradi. Bu tarmoqlar aholining kundalik ehtiyojlarini





qondirishda bevosita ishtirok etadi va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish sur'atlari yuqori bo'lib, statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning qariyb 38 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda, bu esa xizmatlar sektorining barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xizmatlar sohasi ayniqsa yirik shaharlarda, sanoat markazlarida, shuningdek, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda tez sur'atlarda kengaymoqda. Ayni vaqtda bu soha qishloq joylarda ham asta-sekin rivojlanmoqda, bu esa aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Soha rivojiga turtki berayotgan omillar orasida normativ-huquqiy islohotlarning chuqurlashuvi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, soliq va kredit imtiyozlari, elektron xizmatlarning keng joriy qilinishi alohida e'tiborga loyiq. Elektron hukumat tizimi, raqamlashtirish jarayonlari, mobil ilovalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar, onlayn to'lov tizimlarining takomillashuvi xizmatlar sohasini zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, IT xizmatlarining ommalashuvi yangi xizmat yo'nalishlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishida ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimining holati, kadrlar salohiyati ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq xizmatlar sohasi rivojida hal etilmagan masalalar va mavjud to'siqlar ham mavjud. Jumladan, qator hududlarda xizmatlar tarmog'i yetarlicha rivojlanmagan, bu esa hududiy nomutanosiblikka olib kelmoqda. Qishloq joylarda xizmatlar sifati past, tanlovi tor, infratuzilma zaif bo'lishi soha salohiyatining to'liq ochilmasligiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, kadrlar tanqisligi, malaka darajasining pastligi, xizmat ko'rsatish madaniyatining yetarli darajada emasligi iste'molchilar ehtiyojini to'liq qondirishga to'sqinlik qilmoqda. Raqobat muhitining ba'zi tarmoqlarda sustligi, bozorning haddan tashqari monopollashganligi, ruxsatnoma va litsenziyalashdagi byurokratik to'siqlar ham xizmatlar sektorining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Soha rivojida bank va moliyaviy xizmatlarning roli ham alohida ahamiyatga ega. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining kredit mablag'lariga erkin kira olmasligi ko'plab loyihalarning boshlanmasligiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, xizmatlar sohasi uchun mo'ljallangan mikromoliyalashtirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarur. Shu bilan birga, xizmatlar sohasidagi tadbirkorlar uchun yagona axborot maydonini yaratish, xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, baholash va monitoring tizimini kuchaytirish orqali sohaning sifatini oshirish mumkin. Davlat tomonidan xizmatlar sohasiga oid strategik dasturlar qabul qilinmoqda, lekin ularni



amalgama oshirishda joylardagi mutasaddilar faoliyatini uyg'unlashtirish va ularning javobgarligini kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasi bandlik masalasini hal etishda ham katta salohiyatga ega. Bu sohada ayniqsa yoshlar, ayollar va ijtimoiy zaif qatlamlar uchun ko'plab ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud. Shu sababli, bu guruhlar uchun xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida kasb-hunarga o'rgatish, amaliy ko'nikmalar berish orqali ularni iqtisodiy faollikka jalb etish lozim. Turizm xizmatlari sohasi O'zbekiston uchun ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, ammo ichki turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati va madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlarni amalga oshirish kerak. Tibbiy xizmatlar, ta'lim xizmatlari, onlayn maslahatlar va elektron savdo xizmatlari so'nggi yillarda eng tez o'sayotgan yo'nalishlar bo'lib, ularni raqamli platformalar orqali kengaytirish, ishonchli elektron to'lov tizimlarini joriy etish ham dolzarb hisoblanadi. Xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali O'zbekiston o'z iqtisodiy tuzilmasini diversifikatsiyalash, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida nafaqat joriy holati, balki istiqbollari bilan ham alohida e'tibor talab qiladigan soha hisoblanadi. Uning samarali rivojlanishi uchun davlat siyosatining izchilligi, xususiy sektor bilan samarali hamkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning mustahkamlanishi, zamonaviy texnologiyalarning faol joriy qilinishi hamda aholining xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

Xulosa

Xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy jihatdan eng dinamik va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy o'sishi, bandlik darajasining oshishi, ijtimoiy farovonlikning ta'minlanishi hamda aholining turmush darajasini yaxshilashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda davlat tomonidan ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilishi, infratuzilmaviy loyihalar, raqamlashtirish jarayonlari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati xizmatlar sohasining jadallik bilan rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar – hududiy nomutanosiblik, xizmat sifati va ko'lami bo'yicha yetarli raqobatning yo'qligi, malakali kadrlar tanqisligi, axborot texnologiyalarining to'liq joriy etilmagani kabi omillar sohaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida xizmatlar



sohasi infratuzilmasining sustligi, moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoni bo'lmaganligi, ruxsat olish va litsenziyalashdagi byurokratik tartiblar tadbirkorlik subyektlarining faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelgusida xizmat ko'rsatish sohasini kompleks rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim: zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni faol joriy etish, hududlar o'rtasida muvozanatli rivojlanishni ta'minlash, xizmat ko'rsatish standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, yoshlar va ayollarni bu sohaga jalb etish orqali bandlik darajasini oshirish, hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan yangi xizmatlar segmentlarini yaratish.

Xizmatlar sohasining barqaror o'sishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka, milliy farovonlik darajasining oshishiga ham xizmat qiladi. Shu bois bu sohaga strategik yo'nalish sifatida qarash, aniq maqsadlarga asoslangan dasturlar orqali uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga doir statistik ma'lumotlar". – www.stat.uz, 2024.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Normatov A.N., Abdurahmonov Q.X. "Iqtisodiyot nazariyasi". – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2021.
5. Mamatqulov R., Madrahimov B. "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti". – T.: "Fan va texnologiya", 2020.
6. Xodjaev N.H., To'laganov N.N. "Tadbirkorlik asoslari va xizmatlar sohasi rivoji". – T.: Iqtisodiyot, 2019.
7. Qosimova S. "Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli iqtisodiyotning o'rni va roli". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, №2, 2023.
8. Ergashev A., Jo'rayev N. "O'zbekistonda xizmatlar sektorining rivojlanishida xususiy tadbirkorlikning o'rni". // "Moliyaviy tahlil" ilmiy jurnali, №4, 2022.